

III SHO'BA. MADANIYATLARARO ALOQA VA INGVOKULTUROLOGIYA

BUYUK IPAK YO'LI XALQLARI - O'ZBEK VA XITOIY FOLKLORIDAGI OBRAZLARINING QIYOSIY TAHLILI

Musurmanov Erkin Rabbimovich,
filologiya fanlari doktori, Samarqand davlat chet tillari instituti dotsenti
Email: erkinrabbimovich@gmail.com
Jurayev Hakim Ibragimovich,
Samarqand davlat chet tillari instituti o'qituvchisi
Email: hakimjurayev0@gmail.com

Annotatsiya. Turkiy folklorda "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar, asotirlar borki, ularda timsollarga aylangan epik obrazlarning mavjudligi, asarlarning qadimiyligi va badiiy mukammalligi, shubhasiz, turkiy xalqlarning milliy g'ururi va iftixorini jo'sh urdiruvchi omil bo'lib qolmoqda. Bu dostonlar xitoy, yunon, hind xalqlarining buyuk eposlari bilan bir darajada turadigan ulkan merosdir. «Alpomish» dostoniga uyg'un «Qo'rquv ota kitobi», «Manas» dostonlari ham shu kabi ta'riflarga munosib. Mazkur dostonlarning ko'p jihatlari bir-biriga yaqin bo'lib, ularni o'zaro va qo'shni, jumladan, xitoy xalq eposlari bilan qiyosiy tarzda o'rganish maqsadga muvofiq. O'zbek folklori epik qahramonlariga, ayniqsa, "xitoy Herakli" nomini olgan osmon mergani Xou Yi ko'p jihati bilan o'xshashdir. Uning o'q otishdagi mahorati Alpomishni, yovuz yirtqichlarni o'ldirishi O'g'uzxonni, manguilik unsuri uchun olib borgan harakatlari Afrosiyob badiiy obrazini yodga soladi. Xitoy folklorida jangchi va sehrar ayollar timsollari ham borki, ularning variantlari turkiy dostonlarda ko'plab uchraydi. Keltirilgan maqolamizda shunday uyg'unlik va o'ziga xoslik haqida o'z fikr-mulohazalarimizni bildirganmiz.

Kalit so'zlar. Epos, epik qahramon, Alpomish, mergan Xou Yi, jangchi va sehrar ayollar, qiyosiy tahlil.

BÜYÜK İPEK YOLU HALKLARI – ÖZBEK VE ÇİN FOLKLORUNDAKI İMAJLARIN KARŞILAŞTIRMALI ANALIZI

Musurmanov Erkin Rabbimovich,
filoloji bilimlari doktori, Semerkand davlat yabanci diller enstitüsü doçenti
Jurayev Hakim Ibragimovich,
Semerkand Devlet Yabancı Diller Enstitüsü öğretmeni

Özet. Türk folklorunda "Alpamiş," "Göröğlü" serilerindeki destanlar, efsaneler vardır ki, içlerinde sembol haline gelen epik imgelerin varlığı, eserlerin eskiliği ve sanatsal mükemmelliği, şüphesiz Türk halklarının milli gururunu ve iftiharını coşturan bir faktör olmaya devam etmektedir. Bu destanlar, Çin, Yunan ve Hint halklarının büyük destanlarıyla aynı derecede büyük bir mirastır. "Alpamiş" destanına uygun "Korkut Ata Kitabı" ve "Manas" destanları da benzer tanımlara layık. Bu destanların birçok yönü birbirine yakındır ve onları birbirleriyle ve komşu destanlarla, özellikle Çin halk destanlarıyla karşılaştırmalı olarak incelemek uygundur. Özbek folklorunun destansı kahramanlarına, özellikle "Çin Herakli" adını alan gök merganı Hou Yi, birçok yönüyle benzer. Onun ok atma becerisi Alpamiş'ı, kötü canavarları öldürmesi Oğuz Han'ı, sonsuzluk unsuru için yaptığı çabalar Afrasiyab'ın sanatsal imgesini hatırlatır. Çin folklorunda, Türk destanlarında birçok varyantı bulunan savaşçı ve büyücü kadınların sembolleri de vardır. Bu makalede, bu uyum ve özgünlük hakkındaki görüşlerimizi dile getirdik.

Anahtar kelimeler. Destan, epik kahraman, Alpamiş, silahşor Hou Yi, savaştı ve büyücü kadınlar, karşılaştırmalı analiz.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОМ И КИТАЙСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ НАРОДОВ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ

Мусурманов Эркин Раббимович,
доктор филологических наук, доцент Самаркандского
государственного института иностранных языков
Жураев Хаким Ибрагимович,
преподаватель Самаркандского государственного института
и иностранных языков

Аннотация. В тюркском фольклоре существуют эпосы "Алпамыш", цикла "Гуругли" (Gooroglu) и мифы, в которых наличие эпических образов, ставших символами древности и художественного совершенства произведений, несомненно, остаются фактором, подпитывающим национальную гордость тюркских народов. Эти эпосы - огромное наследие, стоящее на одном уровне с великими эпосами китайского, греческого, индийского народов. Тюркские эпосы "Китаби дедэ Коркуд", "Манас", созвучные эпосу "Алпамыш", также достойны аналогичных определений. Многие аспекты этих эпосов близки друг с другом, желательно изучать их в сравнительном аспекте друг с другом и с эпосами соседних народов, включая китайские народные эпосы. Некоторые эпические герои тюркского фольклора во многом схожи с китайскими эпическими героями, особенно с небесным стрелком Хоу И, который носит имя "китайский Геракл". Мастерство Хоу И в стрельбе напоминает Алпамыша, уничтожение свирепых хищников образа Огуза, действия в обретении элемента вечной жизни образа Афрасиаба. В китайском фольклоре также присутствуют образы жениц воительниц или обладательниц магической силы, варианты которых встречаются и в тюркских эпосах. В нашей статье мы приводим научные воззрения касающихся гармонии и оригинальности вышеупомянутых эпических образов присутствующих в тюркских и китайских эпосах.

Ключевые слова. Эпос, эпический герой, Алпамыш, стрелок Хоу И, женица воин и волшебница, сравнительный анализ.

COMPARATIVE ANALYSIS OF IMAGES IN UZBEK AND CHINESE FOLKLORE OF THE PEOPLES OF THE GREAT SILK ROAD

Musurmanov Erkin Rabbimovich,
doctor of philological sciences, associate professor
of the Samarkand state institute of foreign languages
Zhuraev Khakim Ibragimovich,
teacher of the Samarkand state institute of foreign languages

Annotation. In Turkic folklore, there are epics of the Alpamysh series, "Gurugli" (Gooroglu) and myths, in which the presence of epic images that have become symbols of antiquity and the artistic perfection of works undoubtedly remain a factor fueling the national pride of the Turkic peoples. These epics are a huge legacy, standing on a par with the great epics of the Chinese, Greek, and Indian peoples. The epics "Kitabi dede Korkud" and "Manas", which are consonant with the epic "Alpomish", are also worthy of similar definitions. Many aspects of these epics are close to each other, and it is advisable to study them in a comparative aspect with each other and with the epics of neighboring peoples, including Chinese folk epics. Some epic heroes of

Turkic folklore are similar in many ways to Chinese epic heroes, especially the heavenly archer Hou Yi, who is named "Chinese Hercules". Hou Yi's shooting skills are reminiscent of Alpamysh, the destruction of the ferocious predators of the Oguz image, and the actions in gaining the element of eternal life of the Afrasiab image. Chinese folklore also contains images of female warriors or holders of magical powers, variants of which are found in the Turkic epics. In our article, we present scientific views on the harmony and originality of the aforementioned epic images present in the Turkic and Chinese epics.

Keywords. *Epic, epic hero, Alpamish, shooter Hou Yi, female warrior and sorceress, comparative analysis.*

Turkiy, jumladan, o'zbek va qozoq xalq doston qahramonlari adabiyotshunoslikda qo'shni xalqlar personajlari bilan qiyosiy o'rganilgan, "Alpomish" va "Odisseya" dostonlari o'rtasidagi o'xshash jihatlari haqida o'z vaqtida V. Jirmunskiy o'z fikr-mulohazalarini keltirib o'tgan edi [1, 333]. Bu dostonlar syujeti katta ehtimol bilan, qadimgi turkiy xalqlar mifologiyasiga borib taqaladi. Alpomish haqidagi eng arxaik tasavvurlar Oltoy xalq ertagi "Alip-Manash"da qayd etilgan deb taxmin qilinadi. Asarda qahramon shomon xususiyatlariga ega bo'lib, u suyuklisini olib kelish uchun ulkan suv ortidagi yetib bo'lmas o'zga dunyo - o'liklar saltanati deb tahmin qilingan [2] o'lkaga safar uyushtiradi.

Qadim davrlardan Alpomish haqidagi doston Turkiston xalqlari orasida juda mashhur bo'lgan. O'zbek baxshilari o'z tinglovchilarining xalq qahramoniga bo'lgan qiziqishlariga javoban, shajaraviy silsila tamoyillariga ko'ra Alpomishning o'g'li Yodgor haqida doston yaratdilar. Qozoq oqinlari xuddi shu shajara asosida Yodgorning o'g'illari va Alpomishning nabiralari Alatay va Japarkulning qahramonliklarini kuyladilar.

Qozoq xalq dostonlarida Alpomishning afsonaviy vatani Boysun mamlakati (qozoqcha Jideli-Baysın), xalqning azaliy orzusidagi "Buxoro" ortidagi mamlakat deb tushunilgan. Oddiy xalq ommasi ana shu ertaknamo utopiyadan najot izlagan va bu baxtli mamlakatga yo'l topgan xalq donishmandi Asan-Qayg'i yoki pahlavon Utegen kabi obrazlarni yaratgan. Turkiy epik qahramonlarning ayrim vakillari, keltirganimizdek, xitoy folklorida o'z variantiga ega.

Xitoy epik qahramoni Mergani Xou Yi haqida xitoy asotirlarida quyidagicha ma'lumot keltiriladi: Afsonalarga qaraganda, qadim zamonda osmonda ko'k Tangrisining o'g'illari - o'nta quyosh paydo bo'lgan. Quyoshlar o'z navbati bilan tartibni buzmay keng osmon uzra paydo bo'lib nur sochar, kunlar esa shu zaylda tinch va bir maromda o'taverarkan. Bu quyoshlar har kungi bir xil odatdan zerikishibdi. Sharqdan chiqib kelayotgan aravadagi o'n quyosh o'zgacha ish tutib, barchasi birgalikda nur socha boshlabdi. Jaziramadan tiriklikka qirg'in kelibdi. Daryo va ko'llarning suvi qurib, ko'kka bug' bo'lib ko'tarilibdi. Ekin va bog'lar qovjirab, odamlarning tomog'i, mollarning yemishi qolmay, ocharchilik boshlanibdi.

Shunday og'ir vaziyatda yosh Xou Yi degan qahramon ofat maydoniga chiqibdi. U yoy otishda tengi yo'q kamonchi edi, otgan paykoni mo'ljalga aniq tegar edi. Zamin Xudosi Xou Yini yoniga chorlab, bu ofatdan odamlarni qutqarishni iltimos qilibdi. Xou Yi avval bitta yirtqichni va bitta ulkan qushni otib o'ldirdi, so'ng, paykoni bilan osmondagi quyoshlarni bitta – bitta ota boshladi.

Bir pasda to'qqiz quyosh osmon yuzidan g'oyib bo'libdi. Havo salqinlashib, odamlar yengil tin olishibdi. Zamin Xudosi sharofati bilan bitta quyosh ko'kda qolibdi.

"To'qqizta quyoshni otgan Yi" afsonasida inson va tabiat o'rtasidagi uzviy kurash tasvirlangan. Qadimgi odamlarning injiq va beayov tabiat ustidan umid, chidam va jasorat bilan g'alaba qozonganliklari mazkur afsonada o'z aksini topgan [3, 68].

Ushbu asotirning kengaytirilgan variantida keltirilishicha, qadimgi davrlarda odamlarga doimiy kulfatlarni keltiruvchi yovvoyi hayvonlar yashagan. Osmon imperatori maxluqlarni yo'q qilish uchun yerga mergan Xou Yini yuboradi. Mergan go'zal xotini Chane (嫦娥)ni yoniga olib yerga tushadi va turkiy mifologik qahramon O'g'uzxon kabi ko'plab yovuz maxluqlarga qiron keltiradi. Osmon hukmdorining topshirig'i bajarilganda, falokat yuz beribdi – samo egasining erka

o'nta quyosh o'g'li ko'kda paydo bo'libdi, butun jonivorlarning hayoti havf ostida qolibdi. Mergan oldin ularni insofga chaqiribdi, biroq quyoshlarning injiqliklari borgan sari kuchayibdi, yerga yaqinlashib, tabiatga o't qo'yishibdi. Bunga chiday olmagan mergan Yi o'zining qudratli yoyi bilan quyoshlarni nishonga olib birin-ketin urib tushiribdi. Oxiri bitta qolgan quyosh yalinib-yolvorgach, uni kechiribdi. Quyosh boshqa sheriklari kabi samoviy tartibni buzabdi va kun yorituvchisi sifatida fazoda qolibdi.

To'qqiz o'g'lini yo'qotgan ko'k imperatori mergan Xou Yi va uning xotiniga osmon saltanatiga qaytib ko'tarilishga ruxsat bermabdi va mangu umrlarini odamlarniki kabi o'tkinchi qilib qo'yibdi. Shundan keyin mergan Yi xotini bilan yerda muqim yashay boshlabdi. Kunlar, yillar o'tgach, Chane osmon saltanatini sog'inibdi. O'limdan qo'rqqan Chane eridan G'arb ma'budasi Sivangmudan tiriklik suvini so'rab olishni iltimos qilibdi.

Mergan katta qiyinchiliklar evaziga mangulik suvini qo'lga kiritadi. Uni tegishli vaqtda ichish lozimligini o'ylab muddat kutadi va ungacha bir ko'ngilsizlik yuz bermasligi uchun uni xotining ko'zidan yashiradi. Biroq tiriklik suvini istab topgan xotin, sehrli ichimlikni oy taqvimini bo'yicha 8 oyning 15 kuni bir o'zi ichib qo'yadi, ajib yengillikni his qilib, oyga qarab ko'tarila boshlaydi. Xotining ko'kka qarab uchayotganligini ko'rgan mergan nima yuz berganini tushunib yetibdi. Qudratli yoyi bilan sevgilisini urib tushirishni xayoliga ham keltirmay, uni g'amgin nigohlari bilan kuzatib qo'ydi, umrbod ayrilayotganligidan qattiq xafa bo'libdi. Oyga yetib borgan Chane Guanxan saroyida yolg'iz yashay boshlabdi. Unga oyda dolchin donlarini havonchada talqon qilayotgan kichkina quyoncha sherik bo'libdi [4, 20-21].

Xitoy epik qahramoni mergan Yi nafaqat Alpomishni, balki turkiy xalqlar mifologik qahramoni Afrosiyobni (qadimgi Turonning afsonaviy hoqoni Alp Er To'ng'a) yoki qadimgi Shumer xalqi epik qahramoni Gilgamishni (Bilgamishni) ham yodga soladi. "Avesto"da Frangrasyan nomi bilan keltirilgan Afrosiyob Xvarno (kuch-qudrat, hayot kuchi timsoli) ni qo'lga kiritmoq uchun uch marta Vorukasha ummonining tubiga sho'ng'iydi, lekin maqsadiga erisholmaydi. Qiziq tomoni shundaki, qadimgi shumer mifologiyasining bosh epik qahramoni Gilgamish ham Afrosiyob ishini takrorlaydi. *"Utnapishti (suv toshqini davrida odam va hayvonlardan bir juftlarini kemasiga o'tqazib, mangulikka erishgan ma'bud – mualliflar) Gilgamishga O'lim dengizi tubida kishining umri uzaytiradigan chechak o'sishini aytadi. Gilgamish oyoqlariga ikki og'ir tosh bog'lab, dengiz tubiga tushadi va baxt gulini sohilga olib chiqadi. U oddiy suvda yuvinib olmoq niyatida bir ko'l yonida to'xtaydi. Shunda inidan sudralib chiqqan ilon gulni o'g'irlaydi va uni yutib yuboradi. Ilon eski terisini tashlab, qaytadan yasharadi, sehrli gulsiz qolgan Gilgamish esa ona shahriga qaytadi. O'zi bir vaqtlari tiklagan Uruk kentining ulkan devorlarini ko'rib Gilgamishning ruhi yana yuksaladi"* [5, 427].

Xitoy mifologiyasidagi mergan Yi ham mangulik unsurini qo'lga kiritish uchun ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechiradi va maqsadiga erishadi. Undan foydalanmoqchi bo'lganda xotining xiyonati qurboniga aylanadi. Afrosiyob suvga sho'ng'ib mangulik unsuriga erisha olmasa, Gilgamishning ezgulik chechagini ilon o'g'irlasa, mergan Yi ishongan xotini fitnasi bilan mangulik suvidan ayriladi.

Buryat va mo'g'ul xalqlarida mergan Yi syujetining yanada arxaik varianti saqlanib qolingan. Unda keltirilishicha, qadim zamonda bir mergan yashagan ekan. Bir vaqt kelib yer yuziga yetti quyosh chiqibdi, olamni jazirama issiq egallabdi. Shunda Erka mergan qasam ichibdi: "Agar men yetti quyoshni yetti o'qim bilan otib tushirolmasam, bosh barmog'imni kesaman, erlikni yig'ishtirib, tiniq suvni ichmayman, o'tgan yilgi o'simlikni yemayman, qora o'rada yashayman!" Erka mergan olti o'qi bilan olti quyoshni o'rib tushiribdi. Yettinchisini endi otmoqchi bo'lib turganda oldidan olashaqshaq uchib o'tibdi va shu sabab yettinchi quyosh omon qolibdi. Erka mergan qahri kelib qushning ketidan quvib ketibdi, biroq oti oqsab olashaqshaqni qo'ldan chiqaribdi... G'azabi kelgan Erka mergan yoyi bilan otining oyog'ini yaralabdi. Ot tovushqonga aylanibdi, yaralangan ikki old oyoqlari kalta bo'lib qolibdi. Erka mergan qasam ichgandek, tiniq suvni ichmaydigan, o'tgan yilgi o'tni yemaydigan bo'lib, boyboqqa aylanibdi va qora o'rada yashay boshlabdi [6, 500-501]. Qahramonning "bosh barmog'imni kesaman" degan shartining ma'lum

asosi bor. Qadim davrda boyboq mergan otli odam bo'lgan ekan. Uning zamonida ham osmonda uchta quyosh paydo bo'libdi, u biriga o'q uzib nishondan adashgach, jahl bilan bosh barmog'ini kesib tashlabdi va yerga kirib ketibdi.

Mergan Yining vafoti haqidagi mifda aytilishicha, mergan Panmen ismli shogirdini usta kamanchi qilib yetishtiribdi. Biroq ustozini qari, o'zini esa yosh bilgan Panmenning Yiga g'ayirligi kelibdi va ustozini o'ldirish rejasini tuzibdi. Yelkasigi katta sadoq osib olgan Panmen uni ustozinikidan ko'p bo'lgan o'qlar bilan to'ldiribdi. Bir kuni mashqlardan Yi bilan birga uyga qaytayotgan Panmen to'satdan osmonga o'q uzibdi. Ustoz ham uning ketidan o'q uzib, paykonini urib tushiribdi. Bu holat Mergan Yining o'qlari tugaguncha davom etibdi. Panmen ortib qolgan o'qlaridan birini olib, ustozni tomon uzibdi. O'q to'g'ri merganning og'ziga kirib, uni qulatibdi. Ustozini o'lgan deb o'ylagan Panmen uni yoniga yaqinlashganda, mergan Yi hech narsa bo'lmagandek o'rnidan turib: "Meni o'ldirishga biroz shoshilding." – debdi va og'zidan o'qning siniq uchini tupurib tashlayotib. – "Men senga qanday qilib og'iz bilan o'qlarni tutib olishni va tishlab sindirishni o'rgatishga ulgurmagandim." "Meni kechiring, ustoz!" – pushaymon bo'libdi shogird. – "Meni hasad itoatiga olgan ekan ...".

Mergan "Xiyonatchi hech qachon usta mergan bo'lolmaydi" – deb, uning o'q-yoyini sindirib tashlabdi.

Biroq ustozining uyida yashashga qolgan Panmen bundan foydalanib, boshqa xizmatkorlarni yo'ldan uribdi, ov vaqtida g'aflatda qolgan Yining orqasidan to'qmoq bilan urishib, uni shikor eti uchun qaynab turgan qozonga tashlashibdi. Shunday qilib Ko'kosti elini turli balo – qazolardan saqlab qolgan qahramon halok bo'libdi. Ayrim ma'lumotlarda uning o'limida xiyonatkor xotining qo'li borligiga urg'u beriladi. «Menszi» (孟子) asarida mergan Yi ustozining undan merganlikda ustun bo'lganligiga g'arazi kelgan shogirdi Panmen tomonidan o'ldirilganligi keltirilgan [7, 24]. Bu fojia qirg'iz eposi qahramoni Manasning o'limini yodga soladi.

Mergan Yi va Panmen, "Mahobhorat"dagi Arjun va Ekalavya, "Alpomish" dostonidagi Alpomish va Shakaman mergan bilan bog'liq voqealarni qiyoslash mumkin. Bunda ustoz va shogirdlik munosabatlaridan tashqari ezgulik va yovuzlik yoki boshqacha qilib aytganda, In va Yang munosabatlari o'z aksini topgan. "Mahobhorat"dagi Ekalavya kamon otish mahoratida aslida Arjundan ham o'zib ketadi. Biroq uning nasabi "oriy" bo'lmaganligi, balki "varvar" (turklar ajdodlari) eli vakili bo'lganligi uchun u asarda bosh qahramon sifatida ko'rilmaydi [8, 230], Arjunning esa uning merganligiga g'ayirligi keladi. Xitoy, hind va o'zbek folkloridagi merganlar munosabati jadvali shunday ko'rinishga ega.

Baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti "Alpomish" dostonidagi Shakaman mergan Panmen kabi xoindir, birinchisi g'ozni otish istagi uchun qo'ng'iroq elining yo'q bo'lishiga ham rozi bo'lsa, keyingisi mangulik suvini qo'lga kiritish uchun ustoziga hiyonat qiladi. Mergan Yining kamondan o'q uzishidagi mahorati ko'p jihatdan o'zbek dostoni qahramoni Alpomishni eslatadi. Alpomish yosh bo'lishiga qaramasdan o'zida yetilib kelayotgan ulkan kuch-qudratni namoyon qiladi, bobosi Alpinbiydan qolgan o'n to'rt botmon parli yoydan o'q uzib, Asqar tog'ining cho'qqisini uchirib yuboradi.

Xou Yi odamlarni suv maxluqi Xebo, odamxo'r buqa Yaoyuy, dahshatli to'ng'iz Fensi, ulkan bo'g'ma ilon Dafendan xalos qilish hodisasi qadimgi "O'g'uznoma" bosh qahramoni jasoratlari bilan uyg'un. Qadim xitoy she'riyatining asoschisi Syuy Yuan (屈原, er. ol. 340—278 yy.) o'zining "Osmonga savollar" asarida xitoy epik qahramoni-Mergan Xou Yi jasoratlarini shunday keltiradi:

"Sya yerini maxluqlardan tozalashga Mergan Yi elchi qilib yuborildi...

Xeboni o'q bilan otib, nechun,

Daryo malikasi (Xebo xotini-mualiflar.) bilan to'shakni bo'lishdi?

Gajakdor bezakli kumush yoyidan

Qobon Fensi o'lim topdi,-

Xou Yi qurbonlik qilgan bu go'sht

Nimasi bilan Ko'kka ma'qul keldi?

(E. Musurmanov tarjimasini) [9, 131].

Bu syujetning varianti "O'g'uznoma" da keltiriladi: *"Bu chog'ga bu yerda bir ulug' o'rmon bor edi... O'sha o'rmon ichida katta bir qiat (karkidon) bor edi. Yilqilarni, kishilarni yer edi. Juda katta yomon bir maxluq edi. Qiynoq va mashaqqatlar keltirib el-u yurtni azob-uqubatga botirgan edi. O'g'uz qog'on botir, xokisor, bir er kishi edi. Bu qiatni ovlamoq istadi. Kunlardan bir kun ovga chiqdi. Cho'qmor olib, yoy-o'q olib otlandi. Yana qilich bilan qalqon olib bir bug'uni ovladi. Ushbu bug'uni tol chivig'i (novdasi) bilan, Daraxtga bog'ladi va ketdi. Shundan so'ng tong otdi. Tong erta bilan keldi. Qiat bug'uni yeb qo'yganligini ko'rdi. Yana bir ayiqni tutib keltirdi. Oltin belbog'i bilan o'sha daraxtga bog'ladi va ketdi. Shundan so'ng yana tong otdi, tong erta yana keldi. Ko'rdikim qiat ayiqni ham yeb qo'yibdi.*

O'zi o'sha daraxtning tagida kutib turdi. Qiat keldi va boshi bilan O'g'uzning qalqoniga urildi. O'g'uz cho'qmor bilan qiatning boshiga urdi. Uni o'ldirdi. Qilich bilan boshini kesib olib ketdi. Yana kelib ko'rdiki, bir shunqor qiatning ichak-chavog'ini yemoqda ekan. Yoydan o'q otib shunqorni o'ldirdi, boshini kesib oldi. Undan keyin shunqorning nishonasi, mana bu deb ko'rsatdi. (Qiat) bug'uni yedi, ayiqni yedi (uni) cho'qmorim uni o'ldirdi" [10]. Bu syujetlar qadimgi shumerlarning "Bilgamish" ("Gilgamish") dostonidagi "Bilgamishning osmon ho'kizi bilan jangi"ni eslatadi. "Bilgamishning pahlavonligiga qoyil qolgan Ma'buda Innin unga sevgi izhor etadi biroq rad javobini oladi. Innin bundan g'azablanadi va otasidan yordam so'raydi. Otasi xudo Anu unga qarshi samoviy ho'kizni yuboradi. U shunchalik bahaybatli ediki, Frot daryosining suvini bir simirishda ichib qo'yadi, dami bilan yerni yoradi. Bilgamish Enkidu bilan birgalikda samoviy ho'kizni o'ldiradi" [11, 200-201].

Xitoy-o'zbek adabiyotlarida jangovar qizlar talqinida ma'lum o'xshashliklar bor. Xitoy folklorida Xua Mulan (花木蘭) ismli jangchi qiz VI asrda yozilgan "Mulan haqidagi qo'shiq" (木兰詩) [12, 295] personaji sifatida mashhurdir. Asar syujetiga ko'ra, ushbu qahramon qiz keksayib qolgan otasining o'rniga urushga o'tlanadi. O'sha vaqtda urushga faqat erkaklarni olishgani uchun Mulan yigit qiyofasiga kirib oladi va jangchilar safidan joy oladi. Jangda ko'rsatgan qahramonligi uchun imperator uni davlat mansabiga ko'taradi. Shundan so'ng Mulan uyiga qaytib ketadi. Uni yuksak lavozim bilan tabriklashga tashrif buyurgan do'stlari Mulanni qizlar kiyimida ko'rishadi. Shu bilan asar xulosalanmay qoladi. Mulan bilan o'zbek dostonlari qahramonlari To'maris, Barchin, o'rtasida bog'liqlik, aloqadorlik bor. «Qo'rquq ota kitobi» dagi bahodir Solor-Qozonning xotini alp Burla-xotin dushmanga asir tushgan o'g'li O'ruzni qutqarish uchun o'zining qirq qizi hamkorligida jangga kiradi. Qoraqalpoqlarning «Qirq qiz» dostonidagi go'zal qiz Guloyimning qirq qizi va xorazmlik bahodir Arslon bilan birgalikda o'z xalqini chet el bosqinchilari qalmoq podshohi Surtaysha va «qizilboshlar» hukmdori Nodirshohdan himoya qiladi. Go'ro'g'lining yo'qligida xotini og'a Yunus pari vatani-Chambilni xiyonatchilardan saqlab qolish uchun xotinlarni qurollantiradi. O'rta Osiyo xalqlari folkloridagi alp xotin-qizlar obrazlari zaminida turli hayotiy va afsonaviy asoslar bor. Barchinning, «Bamsi Bayrak» dagi Bonu Chechakning alp qiz bo'lishligi bejiz emas.

Diodor, Kursiy Ruf, Plutarx, Yustin kabi grek tarixchilari asli skiflar avlodidan bo'lgan, Kaspiy dengizi bo'yida Girkaniya (qadimgi Xorazm hududi) bilan chegaradosh Fermadonta daryosi bo'ylarida amazonkalar qabilasi yashaganligini, Aleksandr Makedonskiy esa Sirdaryo bo'ylarida amazonkalar malikasi bilan uchrashganligini xabar berishadi. Buyuk muarrix Diodor o'zining «Tarixiy kutubxona» asarida yanada qiziqarli ma'lumotlarni keltiradi. Uning yozishicha, «Amazonkalar faqat Osiyonigina emas, balki Yevropani ham o'zlariga bo'ysundira boshlashdi». Diodor fikrini davom ettirib «*Hatto Fors shohi Kir ham ayollar boshqarib turgan skiflarni yenga olmaydi*» [13, 230] deydi. Tarixchi bu yerda massagetlar malikasi To'maris va uning qavmi haqida so'z yuritayotganligini anglash olish qiyin emas.

Tulki-qiz kabi mifologik obrazlarga hozirga qadar xitoy adabiyotida qayta-qayta murojaat qilib kelinmoqda. Tulki-qiz kabi pari (yuho) o'zbeklar orasida keng tarqalgan mifologik obraz bo'lib, u qadimgi turklarda alvasti, mortuv deb atalgan.

Xitoy folklorida g'aroyib xotin bilan bog'liq syujetlar keng tarqalgan. "Sehrli surat" asotirida qahramon portretidan tushgan qizga uylanadi. Boshqalarida esa inson umr yo'ldoshi-shaftoli daraxti ruhi – Nefrit parisi, uchinchisida – nilufar-qiz, to'rtinchisida – qiz-laqqa baliq bo'ladi. Bunday o'ziga xoslik qisman bo'lsa-da, o'zbek folklorida "Go'ro'g'li" dostonlaridagi Go'ro'g'lining Yunus, Misqol parilarga uylanish epizodini yodga soladi.

Mifologik personajlar orasida ayol jinsidagi ma'buda va maxluqalarning turli toifalari muhim o'rin tutgan. O'rganishlarimiz natijasida ularning shartli ravishda yuksak va quyi darajadagi guruhlariga mansub ekanligi va o'z mavqeidan kelib chiqib ijobiy-salbiy faoliyat olib borishi, oddiy insonlar bilan turlicha munosabatlarga kirishishi ma'lum bo'ldi. Ular orasida o'zbek va xitoy folklorida ko'plab o'xshash, dastlab qadimgi bir badiiy ajdodga ega bo'lgan obrazlar bor bo'lganligi aniqlandi.

Tadqiqotimiz natijasida, epik qahramonlar o'rtasidagi o'xshashliklar nafaqat qardosh turkiy xalqlar folklorida, balki qo'shni bo'lgan xitoy xalq eposlari, miflari personajlari orasida ham mavjud ekanligi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Изд-во: Наука. Л.: 1974. – 333 с.
2. Басилов В.Н. Когда сформировался эпос «Алпамыс»? (мурожаат санаси: 03.03.2025) http://rasul.template.uz/sites/default/files/basilov_statya.pdf яна Создал КондратьевЪ»1.ПМ. 2.Алпамыс батыр, ПМ Казахстана, №237, 1998 год.
3. Мусурманов Э.Р. (叶尔肯, Ма Цуй Линг (马翠玲, 国家公派汉语教). Хитой фольклори (афсона ва эртақлар): ўқув-услугий қўлланма. – Самарқанд: 2014. – 110 б.
4. Юань Кэ. Мифы Древнего Китая: Наука; –Москва; 1965.– 496 с.
5. Сказание о Гильгамеше. Муравьёва Т. 100 Великих мифов и легенд. – Москва : Вече, 2006.-472 с.
6. Неклюдов С. Ю. Тенгри // Мифы народов мира. — М.: Большая российская энциклопедия, 1994. – Т. 2. – С. 500 – 501.
7. ISBN 5-85270-072-9
8. Мэн-цзы // Сер. Чжуцзы цзичэн. Т.1, ч.2. –Пекин 1956. – 498 с.
9. Кумарасвами А., Нобель М. Мифы буддизма и индуизма. Litres, 2017. – 330 с.
10. Цюй Юань. Лисао. В. М. Алексеев. Цюй Юань в переводах И.Гитовича, (Воспроизводится по изданию: Китайская классическая проза в переводах акад. В.М. Алексеева / М.:ГИХЛ, 1959) [Электронный ресурс]: URL (время обращения: 22.04.2020). http://www.lib.ru/POECHIN/UAN/uan1_1.txt_with-bigpictures.html
11. Ўғузнома. (Нашрга тайёрловчи: Бахтиёр Исабек). [Электрон ресурс]: URL <http://www.eadabiyot.uz/uzbek/qadimiy/165-oguznoma.html> (мурожаат вақти: 08.11.2017).
12. Афанасьева В.К. Гильгамеш и Энкиду. Эпические образы в искусстве. –М.: Наука, 1979. 219 с.
13. 木兰诗 (кит.). Энциклопедия Байду. Baidu. Дата обращения 12 октября 2017: The Global Intercultural Communication Reader / Molefi Kete Asante, Yoshitaka Miike, Jing Yin. – Routledge, 2013. – P. 295. — 600 p.
14. Диодор. Историческая библиотека. Часть седьмая, Санкт-Петербург, при ИМПАН., 1774. – 108 с.